



INTELLEKTUAL MULKGA OID MILLIY QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA NIZOLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Muratbaeva Gozzal Aybek qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

yuridika fakulteti 1-kurs talabasi

muratbaevagozzal26@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20268781>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-may 2026 yil
Ma'qullandi: 5-may 2026 yil
Nashr qilindi: 18-may 2026 yil

KEY WORDS

*intellektual mulk, mualliflik
huquqi, patent, milliy qonunchilik,
nizolarni hal qilish, raqamli
huquq, TRIPS, arbitraj.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk sohasidagi milliy qonunchiligini rivojlantirish istiqbollari va bu yo'nalishdagi mavjud huquqiy muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida intellektual mulk ob'ektlarini himoya qilishda yuzaga keladigan nizolarni huquqiy tartibga solish mexanizmlari, xususan, sud va muqobil nizolarni hal qilish usullari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba va TRIPS bitimi talablaridan kelib chiqib, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Mamlakatimizda intellektual mulk sohasini rivojlantirish, muallif va boshqa huquq egalari qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Intellektual mulkni rag'batlantirishga doir normalar Aosiy qonunimizdan ham o'rin olgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanib, intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi va davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qilishi qat'iy belgilab qo'yilgan [1]. Mamlakatda iqtisodiyot tarmoqlariga intellektual faoliyat natijalari va innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish, mintaqaviy brendlarni yaratish, kontrafakt mahsulotlar realizatsiyasining oldini olish, intellektual mulkning ishonchli huquqiy himoyasini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilish, sohada sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga o'z vaqtida chora ko'rish, mualliflarning va boshqa ijodkorlarning moddiy manfaatdorligini oshirish, xorijiy kompaniyalarning intellektual mulkka bo'lgan huquqlarini himoya qilish kabi yo'nalishlarda bir qator masalalar dolzarbligicha qolmoqda. Intellektual faoliyat natijalarini qo'llash orqali iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy axborot-innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy qilish O'zbekiston Respublikasini jadal rivojlantirishning muhim shartlaridan biri sanaladi [2]. Intellektual mulk obyektlari muhofazasini ta'minlash bilan birga ularni samarali himoya qilish mexanizmlarini yo'lga qo'yish va amalga oshirish hamda bu yo'nalishdagi amaliyotni takomillashtirish davr talabidir. Intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi deganda qonunchilikka muvofiq mazkur obyektlarning tan olinishi va davlat tomonidan muallif va (yoki) huquq egalari mutlaq

huquqlarning berilishi hamda intellektual mulkni himoya qilish uchun tegishli imkoniyatlar taqdim etilishi tushuniladi [3].

Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish ularning yaratilganligi tufayli yoxud ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda va tartibda vakolat berilgan davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza berilishi natijasida yuzaga keladi. Oshkor etilmagan axborotga huquqiy muhofaza berish shartlari qonun bilan belgilanadi. Intellektual faoliyat natijalarining mualliflari ana shu natijalarga nisbatan shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarga ega bo'ladilar. Shaxsiy nomulkiy huquqlar muallifga uning mulkiy huquqlaridan qat'i nazar, tegishli bo'ladi va uning intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan mulkiy huquqlari boshqa shaxsga o'tgan taqdirda uning o'zida saqlanib qoladi. Intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositaga nisbatan mulkiy huquqlar egasiga ana shu intellektual mulk obyektidan o'z xohishiga ko'ra har qanday shaklda va har qanday usulda mutlaq qonuniy foydalanish huquqi tegishli bo'ladi. Huquq egasiga mutlaq huquq asosida tegishli bo'lgan intellektual mulk obyektlaridan boshqa shaxslarning foydalanishiga faqat huquq egasining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi. Muallif intellektual faoliyat natijalarini yaratish va ulardan foydalanish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha kelgusida asar, ixtiro yoki boshqa intellektual faoliyat natijasini yaratish va o'zining ish beruvchisi bo'lmagan buyurtmachiga bu natijadan foydalanish uchun mutlaq huquqlar berish majburiyatini o'z zimmasiga olishi mumkin. Muallif zimmasiga ushbu muallif kelgusida yaratadigan har qanday intellektual faoliyat natijalaridan foydalanish uchun mutlaq huquqlarni birorta shaxsga berish majburiyatini yuklaydigan shartnoma o'z-o'zidan haqiqiy emas. Intellektual faoliyat natijalarini yaratish va ulardan foydalanish to'g'risidagi shartnomaning muallifning kelgusida muayyan turdagi yoxud muayyan sohadagi intellektual faoliyat natijalarini yaratishni cheklaydigan shartlari o'z-o'zidan haqiqiy emas [4].

Asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan qonunga xilof ravishda foydalanish, xuddi shuningdek asarlarning yoki turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalarini takrorlash, tarqatish, barchaninge'tiboriga yetkazish yoxud asarlarning yoxud turdosh huquqlar obyektlarining nusxalarida ularning tayyorlovchilari haqida, ularni ishlab chiqarish joylari to'g'risida, shuningdek mualliflik huquqining va turdosh huquqlarning egalari haqida yolg'on axborotni ko'rsatish, - asarlarning va turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalarini, tarqatish uchun foydalaniladigan materiallar va uskunalarni hamda boshqa huquqbuzarlik sodir etish qurollarini musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, - asarlarning va turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalarini, shuningdek ularni takrorlash hamda tarqatish uchun foydalaniladigan materiallar va uskunalarni hamda boshqa huquqbuzarlik sodir etish qurollarini musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - o'ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi [5].

Asarga, ixtiroga, foydali modelga, sanoat namunasiga, seleksiya yutug'iga va integral mikrosema topologiyasiga nisbatan mualliflikni o'zlashtirib olish, hammualiflikka majburlash, shuningdek ushbu intellektual mulk obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ular rasman e'lon qilinguniga qadar muallifning roziligisiz oshkor etish, - bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar takroran, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib, xizmat mavqeyidan foydalangan holda, juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa,

- bir yildan uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilib, bazaviy hisoblash miqdorining yetmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan e'tiboran o'ttiz kunlik muddatda muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzish oqibatlarini bartaraf etgan va yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

Asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan qonunga xilof ravishda foydalanish, xuddi shuningdek asarlarning yoki turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalarini takrorlash, tarqatish barchaning e'tiboriga yyetkazish yoxud asarlarning yoki turdosh huquqlar obyektlarining nusxalarida ularni tayyorlovchilar haqida, ularni ishlab chiqarish joylari to'g'risida, shuningdek mualliflik huquqining va turdosh huquqlarning egalari haqida yolg'on axbirotni ko'rsatish ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorida jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar takroran, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib, xizmat mavqeyidan foydalangan holda, ommaviy axborot vositalaridan yoxud telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib, juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining yyuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi. Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u yetkazilgan moddiy zararining o'rnini jinoyat aniqlangan kundan e'tiboran o'ttiz kunlik muddatda qoplagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi [6].

Intellectual mulk huquqining savdo bilan bog'liq masalalari bo'yicha bitim (TRIPS) — Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo barcha davlatlar o'rtasidagi xalqaro huquqiy shartnoma. Mazkur bitim boshqa JSTga a'zo davlatlarning fuqarolariga nisbatan qo'llaniladigan intellektual mulkning turli shakllarini milliy hukumatlar tomonidan tartibga solish uchun minimal standartlarni belgilaydi. TRIPS bitimi birinchi marta intellektual mulk huquqini ko'p tomonlama olib boriladigan savdo tizimiga kiritdi. Bugungi kungacha intellektual mulk bo'yicha eng keng qamrovli ko'p tomonlama shartnoma bo'lib qolmoqda. Xususan, Jahon Savdo Tashkiloti a'zolaridan mualliflar va boshqa mualliflik huquqi egalari, shuningdek turdosh huquqlar egalari, xususan, ijrochilar, ovoz yozish ishlab chiqaruvchilari va radioeshittirish tashkilotlarini qamrab oluvchi mualliflik huquqlarini himoya qilinishini talab qiladi. Mualliflik huquqi himoya qilinadigan sohalarning bir qanchasiga quyidagilar kiradi: geografik ko'rsatkichlar; sanoat namunalari; integral mikrosxemalar sxemasi-dizaynlari; patentlar; yangi o'simlik navlari; savdo belgilari; savdo nomlari va oshkor etilmagan yoki maxfiy ma'lumotlardir. TRIPS, shuningdek, ijro tartib-qoidalari, himoya vositalari va nizolarni hal qilish tartiblarini ham belgilab beradi. Barcha intellektual mulk huquqlarini himoya qilish va qo'llash texnologik innovatsiyalarni rag'batlantirish, texnologiyalarni uzatish va tarqatish, ishlab chiqaruvchilar va texnologik bilimlardan foydalanuvchilarning o'zaro manfaatlarini ta'minlash va ijtimoiy va iqtisodiy farovonlikka yordam beradigan maqsadlarga javob berishi kerak. Shuningdek, huquq va majburiyatlar muvozanatiga e'tibor berilishi lozim. Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo davlatlardan intellektual mulk huquqlarini kuchli himoya qilish bo'yicha o'z talablari mavjud. Masalan, TRIPS qoidalariga ko'ra mualliflik huquqi shartlari, agar muallifning hayotiga asoslanmagan bo'lsa, kamida 50 yil uzaytirilishi kerak (TRIPS 12 va 14-

moddalar) [7]. Mualliflik huquqi Bern konvensiyasida ko'rsatilganidek ro'yxatga olishda hech qanday "rasmiyatchilikka" asoslanmagan holda avtomatik tarzda berilishi kerak (9-modda).

Kompyuter dasturlari ham mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunga muvofiq "adabiy asarlar" sifatida qaralishi va boshqa intellektual huquqlar bilan bir xil himoya qilish shartlariga ega bo'lishi kerak. Har bir davlatda intellektual mulk to'g'risidagi qonunlar mahalliy fuqarolarga milliy rejim tamoyili bo'yicha hamma fuqarolarga teng imkoniyatlar yaratishi lozim. TRIPSni imzolagan boshqa davlatlar fuqarolari uchun mavjud bo'lmagan imtiyozlarni qo'llashi mumkin emas. Patentlar barcha "texnologiya sohalari"dagi "ixtirolar"ga patentga layoqatlilikning barcha boshqa talablariga javob berishi sharti bilan taqdim etilishi kerak (garchi ayrim jamoat manfaatlari uchun istisnolarga yo'l qo'yilsa ham (27.2 va 27.3-moddalar) [8] va bu huquq kamida 20 yil davomida amal qilishi kerak (33-modda). Kompyuter dasturlari va patentlarning huquq egalari qonuniy manfaatlariga asossiz ravishda putur yetkazilishiga yo'l qo'yilmaydi va bu qonun bilan himoya qilinadi [7].

Xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston hududida intellektual mulk huquqi yetarlicha himoya qilingan va O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligida batafsil ko'rsatilib o'tilgan, masalan ma'muriy javobgarlik va jinoyat kodekslarida jazo choralari va holatlari aniq belgilangan. Bugungi kunda intellektual mulk obyektlari asosan raqamli formatda (internetda) tarqalmoqda. Internet provayderlarining mualliflik huquqi buzilgan holatlardagi aniq belgilash va blokcheyn texnologiyasi yordamida mualliflik huquqini ro'yxatga olish va depozitariy tizimini yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Intellektual mulk bilan bog'liq nizolar o'ta murakkab va texnik bilim talab qilgani uchun ularni faqat umumiy sudlarda ko'rish samarali bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun Intellektual mulk arbitraji va mediatsiya (kelishtiruv) tizimini rivojlantirish va ixtisoslashgan "Patent sudlari" yoki sudlar tarkibida intellectual mulk bo'yicha maxsus kollegiyalar faoliyatini yo'lga qo'yish lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, intellektual mulk sohasidagi milliy qonunchilikni takomillashtirish - bu shunchaki huquqiy islohot emas, balki mamlakatning innovatsion jozibadorligini oshirishning asosiy omilidir. Nizolarni samarali tartibga solish uchun sud tizimini ixtisoslashtirish, raqamli makonda mualliflik huquqini himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini (blokcheyn, smart-kontraktlar) joriy etish hamda xalqaro standartlarni milliy huquqqa implementatsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu choralarning ko'rilishi nafaqat mahalliy ixtirochilarni rag'batlantiradi, balki xorijiy investitsiyalarning oqib kelishiga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // lex.uz URL: <https://lex.uz/docs/-6445145> (13.04.2026).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.04.2022 yildagi "Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-221-sonli Qarori.
3. Oliy sud Plenumining 23.06.2023 yildagi "Intellektual mulkga oid ishlarni ko'rib chiqishning ayirim masalalari to'g'risida" 19-sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi // lex.uz URL: <https://lex.uz/mact/-111189> (13.04.2026).
5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // lex.uz URL: <https://lex.uz/docs/-97664> (13.04.2026).
6. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // lex.uz URL: <https://lex.uz/mact/-111453> (13.04.2026).
7. TRIPS shartnomasi // Vikipediya URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/TRIPS_shartnomasi (13.04.2026).